

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI

TURAQULOV FOZILJON MAMARAYIM O'G'LI

**KARBOKSIMETILSELLYULOZA ASOSIDA
BARQARORLASHTIRILGAN SELEN NANOZARRALARI TUTGAN
BIOKOMPOZITLARNING OLINISHI, TUZILISHI VA XOSSALARI**

**02.00.05 – Sellyuloza va sellyuloza-qog'oz ishlab chiqarish kimyosi va texnologiyasi
02.00.12 – Nanokimyo, nanofizika va nanotexnologiya**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Turaqulov Foziljon Mamarayim o‘g‘li Karboksimetilsellyuloza asosida barqarorlashtirilgan selen nanozarralari tutgan biokompozitlarning olinishi, tuzilishi va xossalari.....	3
Туракулов Фозилжон Мамарайим угли Получение, структура и свойства биокмползитов, содержащих стабилизированные наночастицы селена, на основе карбоксиметилцеллюлозы.....	21
Turakulov Foziljon Mamarayim ugli Preparation, structure and properties of biocomposites containing stabilized selenium nanoparticles on the basis of carboxymethylcellulose	41
Nashr etilgan ishlar ro‘yxati Список опубликованных работ List of published works.....	45

**POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

POLIMERLAR KIMYOSI VA FIZIKASI INSTITUTI

TURAQULOV FOZILJON MAMARAYIM O‘G‘LI

**KARBOKSIMETILSELLYULOZA ASOSIDA
BARQARORLASHTIRILGAN SELEN NANOZARRALARI TUTGAN
BIOKOMPOZITLARNING OLINISHI, TUZILISHI VA XOSSALARI**

**02.00.05 – Sellyuloza va sellyuloza-qog‘oz ishlab chiqarish kimyosi va texnologiyasi
02.00.12 – Nanokimyo, nanofizika va nanotexnologiya**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/K723 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zR FA Polimerlar kimyosi va fizikasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (polchemphys.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yunusov Xaydar Ergashovich

texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponentlar:

Rahmonberdiev Gappor

kimyo fanlari doktori, professor

Muxamediev Muxtar Ganievich

kimyo fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

Bioorganik kimyo instituti

Dissertatsiya himoyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.K/FM/T.36.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi Bir martalik ilmiy kengashning 2024 yil “25” dekabr soat 15³⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 7^b uy. Tel: (+99871) 241-85-94, faks: (+99871) 241-26-60, e-mail: polymer@academy.uz).

Dissertatsiya bilan Polimerlar kimyosi va fizikasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (43 raqam bilan ro‘yxatga olingan) (100128, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko‘chasi, 7^b uy. Tel: (+99871) 241-85-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil “13” dekabr kuni tarqatiladi.

(2024 yil “ ” dagi raqamli reestr bayonnomasi.)

S.Sh. Rashidova

Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik Ilmiy kengash raisi,
k.f.d., professor, akademik

M.M. Usmanova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash ilmiy kotibi
k.f.n., katta ilmiy xodim

A.A. Sarimsakov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda o'sma kasalliklarning keng tarqalishi va ularni davolashga hamda oldini olishga yo'naltirilgan tarkibida barqaror nanozarralar tutgan polimer tarkibli bezarar, bioparchalanuvchan tibbiy preparatlar va biomateriallarning yangi avlodlarini sintez qilish va ularni amalyotga joriy etish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda jahonda tobora keng tarqalib borayotgan xavfsiz va xavfli o'sma kasalliklarni davolovchi preparatlar va biomateriallarga talab ortib borayotganligi sababli, mahalliy xomashyolar asosida bezarar, samarali, arzon, import o'rnini bosuvchi, eksportbop bo'lgan nanostrukturali polimer tarkibli dori vositalari va tibbiy buyumlarning yangi avlodlarini sintez qilish va ularni o'sma kasalliklarini davolashda qo'llanilishi bo'yicha ilmiy izlanishlar faol olib borilmoqda. Bu borada, sellyulozaning suvda eruvchan hosilalari asosida barqaror selen nanozarralari tutgan bezarar, bioparchalanuvchan tibbiy preparatlar va biomateriallarning yangi avlodlarini sintez qilish, hamda ularni amalyotga joriy etish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Respublikamizda ham bioeruvchan tabiiy sellyuloza va uning hosilalari asosida qishloq xo'jaligi, sanoat, farmasevtika, tibbiyot sohalarida qo'llaniladigan tarkibida barqaror nano o'lchamli metalnanozarralari va biologik faol modda tutgan yangi polimer mahsulotlar yaratishga doir ilmiy-amaliy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, mahalliy tabiiy sellyuloza va uning xosilalari asosida tibbiyot, farmasevtika sohalarida import o'rnini bosuvchi eksportbop, bioeruvchan polimer tarkibli preparatlar va tibbiy buyumlar yaratishni rivojlantirishda ilmiy izlanishlarni yuqori darajada tashkil qilish bo'yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, raqobatbardosh polimer mahsulotlarni ishlab chiqarish borasida muhim natijalarga erishilmoqda. Mamlakatimizni yanada rivojlantirish bo'yicha "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da¹ va 2030-yilgacha bo'lgan ilm-fanni rivojlantirish kontsepsiyasida² "...mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish..." vazifalari belgilab berilgan. Bu borada O'zbekiston Respublikasida mahalliy tabiiy polimerlar sellyuloza va uning hosilalari asosida o'sma kasalliklariga qarshi polimer tarkibli yangi avlod dori vositalari va biomateriallar yaratish hamda ularni amaliyotga joriy etish yo'nalishida ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-apreldagi PQ-2866 sonli "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasi aholisiga onkologik xizmat ko'rsatishni yanada rivojlantirish va aholiga onkologik yordam ko'rsatishni

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" Farmoni.

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori va 2021 yil 27-maydagi PQ-5130 sonli “Aholiga gematologiya va onkologiya xizmatlarini ko‘rsatish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya ishi natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dunyoning qator yetakchi ilmiy markazlarida turli usullarda barqaror selen nanozarralarini sintez qilish va ularning o‘lcham va shakllarini boshqarish orqali yaratilayotgan preparatlarda yangi terapevtik va boshqa xossalarni berish, ular asosida olinadigan tibbiy preparatlar va biomateriallarning fizik-kimyoviy hamda tibbiy-biologik xossalarini o‘rganish bo‘yicha ilmiy izlanishlar jadallik bilan olib borilmoqda. Chop etilgan ilmiy nashrlarning ko‘pchiligida sintetik polimerlar, jumladan, polietilenglikol, polivinilspirt, siklodekstrin poli-L-lizin, polivinilpirrolidon bilan barqarorlashtirilgan selen nanozarralarini sintez qilishga bag‘ishlangan. Tabiiy polimerlar, jumladan, mikrokristalsellyuloza, xitozan, selluloza, glyukomannan matritsalarida turli o‘lcham va shaklli barqaror selen nanozarralari (Se^0 NZ) sintez qilish, hamda ular asosida polimer tarkibli tibbiy preparatlar va biomateriallar olish va ularning xossalarini o‘rganish bo‘yicha Jiang Gouhua, Hou Yong Yu, Yuying Chen, Zhang, Yiqiang, Wenjing Zhang, Qing-Ling Xua, Yi Wan, P.M.Bichkovskiy, A.A. Rogachev, V.E. Agabekov, V.V. Kopeykin, D.A. Panov, T.S. Osina, A.M. Boчек va bir qator ilmiy maktablar hissa qo‘shib kelmoqda.

Respublikamizda tibbiy va sintetik polimerlar asosida tibbiy preparatlar va biomateriallar yaratishning rivojlanishiga akademiklar S.Sh. Rashidova, Sh.Sh. Sagdullayev, A.S. Turayev, professorlar A.A. Sarimsoqov, M.G. Muxammadiev, G. Raxmonberdiev, H.I. Akbarov, Z.Z. Hakimov, A.A. Ataxanov, A. Raxmonov, fan doktorlari X.E. Yunusov, Sh.A. Yo‘ldoshov va boshqalar o‘z hissalarini qo‘shganlar.

Ushbu izlanishlarga qadar adabiyotlarda selluloza va uning hosilalari matritsalarida barqaror Se^0 NZ sintez qilish va ular asosida o‘sma kasalliklariga qarshi preparatlar va biomateriallar yaratish hamda ularning fizik-kimyoviy, tibbiy-biologik xossalarini o‘rganish, shu bilan birga polimer matritsasida Se^0 NZ bir xil taqsimlanishi, o‘lcham va shakllarini boshqarish borasidagi ilmiy tadqiqotlar deyarli olib borilmagan. Bu o‘z navbatida ushbu yo‘nalishda chuqur fundamental va ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish, oldindan rejalashtirilgan Se^0 NZ tutgan polimer tarkibli biokompozitlarni sintez qilish va ularni fizik-kimyoviy hamda tibbiy-biologik xossalarini o‘rganish istiqbollari yuzaga keltiradi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishi rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Polimerlar kimyosi va fizikasi instituti bazaviy ilmiy tadqiqot ishlari rejasi (2020-2024 yy.) hamda MRB-AN-2019-16 “Tabiiy

bioparchalanuvchan polimerlar asosida barqarorlashtirilgan selen nanozarralari tutgan va onkologik kasalliklarni davolashga yo'naltirilgan polimer shaklli dori vositalarini yaratish" (2019-2021 yy.) va MRB-2021-538 "Polimer-barqarorlashtirilgan selen nanozarralari asosida o'simtaga qarshi preparatlarning olinishi, kimyo-farmasevtik, tibbiy biologik xossalari" (2021-2023 yy.) mavzularidagi fundamental va amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi natriy-karboksimetilsellyuloza eritmalarida turli o'lcham va shaklli selen nanozarralari shakllantirish qonuniyatlarini aniqlash va ular asosida gel va plyonka ko'rinishidagi polimer biokompozitlarning olinishi va ularning tuzilishi, fizik-kimyoviy hamda tibbiy-biologik xossalarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Se⁰ NZni sintez qilish va barqarorlashtirish uchun natriy-karboksimetilsellyuloza matritsa na'munalarini tanlash va ularning fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq etish;

natriy-karboksimetilsellyuloza eritmalarida turli o'lcham va shaklli Se⁰ NZni shakllantirish imkoniyatlarini tadqiq etish;

natriy-karboksimetilsellyuloza gidrogellarida turli o'lcham va shaklli Se⁰ NZni shakllantirishning optimal sharoitlarini aniqlash va ularning tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalarini o'rganish;

tarkibida turli o'lcham va shaklli Se⁰ NZ tutgan natriy-karboksimetilsellyuloza gellaridan biokompozit plyonka olishning optimal sharoitlarini aniqlash va ularning tarkibi, tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalarini aniqlash;

tarkibida turli o'lcham va shaklli Se⁰ NZni tutgan biokompozit gel va plyonka na'munalarining tibbiy-biologik xossalarini tadqiq etish va ularning prinsipial texnologik sxemalarini yaratish.

Tadqiqotning obykti - natriy-karboksimetilsellyuloza, natriy selenit, askorbin kislota, biokompozit eritma, gel va plyonka na'munalari hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti natriy-karboksimetilsellyuloza (Na-KMS) eritmasida selenit anionlarining askorbin kislota bilan kimyoviy qaytarilish orqali turli o'lcham va shaklli Se⁰ NZni shakllantirish va ularni polimer matritsa bilan barqarorlashtirish imkoniyatlarini tadqiq etish. Tarkibida turli o'lcham va shaklga ega Se⁰ NZ tutgan Na-KMS asosida biokompozit gel va plyonkalarni olinishi va ularning fizik-kimyoviy, tibbiy-biologik xossalarini tadqiq qilish hamda ularning ishlab chiqarish texnologik sxemalarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda atom kuchlanishli mikroskopiya (AKM), IQ va UB-spektroskopiya, skaner elektron mikroskopiya (SEM) rentgenostrukturaviy tahlil, yorug'likning dinamik sochilishi (DLS), reologiya, element analiz, oksiredmetrik titrlash, fizik-kimyoviy, fizik-mexanik, tibbiy-biologik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor Na-KMS eritmasida kimyoviy qaytarilish usulida selenit ionlaridan askorbin kislota ishtirokida Se⁰ NZni sintez qilindi;

ilk bor Na-KMS asosida tarkibida turli o'lcham va shaklga ega Se⁰ NZ tutgan o'smaga qarshi biokompozit gel va plyonkalar olindi;

Na-KMS asosida olingan biokompozit eritma, gel, plyonka matritsalarida shakllangan Se⁰ NZning o'lchami, shakli, tuzilishi va barqarorligi aniqlandi va gel, plyonka olishning prinsipial texnologik sxemalari ishlab chiqildi;

tarkibida turli o'lcham va shaklli Se⁰ NZ tutgan Na-KMS asosida olingan gel va plyonkalarining toksikologik va o'smaga qarshi xossalari o'rganilganda "tarkib-tuzilish-xossa" qonuniyatlari aniqlandi;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Na-KMS eritmalarida natriy selenit tuzidan askorbin kislotasi ishtirokida kimyoviy qaytarish usulida turli o'lcham va shaklli Se⁰ NZ shakllantirishning maqbul sharoitlari aniqlangan;

tarkibida turli o'lcham va shaklli Se⁰ NZ tutgan Na-KMS asosidagi biokompozit eritma, gel va plyonka olishning maqbul sharoitlari aniqlangan va ularni tajriba partiyalari laboratoriya sharoitida olingan va ularning tarkibi, tuzilishi zamonaviy fizik-kimyoviy usullar orqali aniqlangan;

tarkibida turli o'lcham va shaklli barqaror Se⁰ NZ tutgan o'sma kasalliklariga qarshi bioparchalanuvchan biokompozitsion gel va plyonka preparatlarning tibbiy-biologik xossalari va o'sma hujayralariga qarshi faolligi O'zR SSV Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining eksperimental laboratoriyasida tajriba hayvonlarida o'rganilgan va ijobiy xulosalar olingan;

tarkibida turli o'lcham va shaklli Se⁰ NZ tutgan eritma, gel va plyonka, biokompozit na'munalari olishning prinsipial texnologik sxemasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Na-KMS eritmalarida turli o'lcham va shaklli Se⁰ NZni sintez qilish va ular asosida biokompozit gel va plyonka olinishi, ularning fizik-kimyoviy, hamda tibbiy-biologik xossalari zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida aniqlangan. Olingan ilmiy va amaliy natijalar respublika va xalqaro ilmiy jurnallarda va anjumanlarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, tozalangan Na-KMS eritmasida natriy selenit tuzidan askorbin kislotasi ishtirokida kimyoviy qaytarilish usulida turli o'lcham va shaklli Se⁰ NZni sintez qilish usullari aniqlangan, kimyoviy reaksiya kinetikasi va reaksiya sharoitlarini aniqlangan, hamda tarkibida turli o'lcham va shaklli Se⁰ NZni tutgan biokompozitsion na'munalarning tarkibi, barqarorligi, tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalari aniqlangan. Shuningdek, sintez qilingan turli o'lcham va shaklli Se⁰ NZ tutgan polimer tarkibli bioparchalanuvchan eritma, gel, plyonka na'munalari olishning maqbul sharoitlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, mahalliy xomashyolar asosida import o'rnini bosuvchi, eksportga yo'naltirilgan o'sma kasalliklarini oldini oluvchi va davolovchi tarkibida turli o'lcham va shaklga ega Se⁰ NZ tutgan Na-KMS asosida bioparchalanuvchan eritma, gel va plyonka shaklidagi biokompozit preparatlarning laboratoriya sharoitida tajriba sinov

na'munalari olingan va tibbiy-biologik, toksikologik va o'sma hujayralariga qarshi faolligi aniqlangan. Tarkibida Se⁰ NZ tutgan eritma, gel va plyonkalarining tibbiy-biologik, toksikologik va o'sma hujayralariga qarshi xossalari bo'yicha tadqiqotlar natijalari Toshkent tibbiyot akademiyasi va Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazida olib borilgan va ijobiy natijalar olingan.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Karboksimetilsellyuloza asosida barqarorlashtirilgan selen nanozarralari tutgan biokompozitlarning olinishi, tuzilishi va xossalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

“Bioparchalanuvchi polimer strukturasi barqarorlashgan Se⁰ NZ olish usuli” mavzusida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining foydali model patenti olingan (№ FAP 2422, 15.02.2024). Natijada mahalliy xomashyolar asosida import o'rnini bosuvchi samarali arzon bo'lgan o'sma kasalliklarini profilaktikasi va davolovchi polimer tarkibli biokompozit biomateriallar sintez qilish imkonini bergan;

bioeruvchan tabiiy polimerlar tanlash va ularning tuzilishi, reologik xossalari, gel, plyonka hosil qilish xususiyatlari hamda polimer asosda Se⁰ NZ shakllanish qonunoyatlari “UNITEXPROM BDU” unitar korxonasi polimer tarkibli yangi dori vositalarini sintez qilishda amaliyotga joriy etilgan. (“UNITEXPROM BDU” unitar korxonasi 2024-yil 06-fevraldagi №02/411 raqamli xati). Natijada tarkibida Se⁰ NZ tutgan polimer tarkibli dori vositalarining tajriba na'munalari olish imkonini bergan;

Na-KMS va Se⁰ NZ asosidagi biokompozitlarning sintezi va fizik-kimyoviy xossalari bo'yicha olingan ma'lumotlardan 5 ta xorijiy ilmiy jurnallarda barqaror selen nanozarralari sintez qilish va fizik kimyoviy tahlili uchun foydalanilgan (Chemistry of Africa, 2022, Vol. 6, No. 2, 1037–1050, Springer, IF = 2.3; Green processing and synthesis, 2023, Vol. 12, 20228100, IF = 3.97; Waste and Biomass Valorization, 2023, Page 1, 1793–1806, Springer, IF = 3.449; Nanobiotechnology Reports, 2024, Vol. 19, No. 1. 108–115, IF = 0.5; Waste and Biomass Valorization, 2024, Vol. 15, 1819–1831. Springer, IF = 3.449). Natijada Se⁰ NZning o'lcham va shakllarini boshqarish orqali yuqori biologik faollikga ega biokompozit preparatlar va biomateriallar olish imkoniyatini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya bo'yicha olingan asosiy natijalar 13 ta xalqaro va 16 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan va ma'ruzalar bilan ishtirok etilgan.

Tadqiqot natijalarining nashr etilishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 36 ta ilmiy ish chop etilgan, bulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy nashrlarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilish va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish qismi, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyektlari va predmetlari belgilangan, O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo‘yicha xulosa qilingan hamda nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Bioparchalanuvchan polimer matritsalar asosida barqaror Se⁰ NZ tutgan biokompozitlarning olinishi, tuzilishi, xossalari va qo‘llanilishi”** nomli birinchi bobida dori vositalari va biomateriallarni yaratishda Na-KMSning farmatsevtika va tibbiyot amaliyotida polimer matritsa sifatida qo‘llanilishi, turli polimer matritsalarda barqaror Se⁰ NZning sintez qilish usullari va ularning tuzilishi, fizik-kimyoviy hamda tibbiy-biologik xossalari va qo‘llanilishi bo‘yicha tahliliga bag‘ishlangan adabiyotlar sharhi keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot obyektilar va usullari”** nomli ikkinchi bobida tarkibida Se⁰ NZ tutgan Na-KMSning o‘smaga qarshi eritma, gel va plyonka biokompozitlarni olish usullari va sharoitlari hamda ularning fizik-kimyoviy, tibbiy-biologik xossalarini tadqiq etish usullari bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Tarkibida turli o‘lcham va shaklli barqaror Se⁰ NZ tutgan Na-KMS asosida biokompozit eritma, gel va plyonkalarining olinishi va ularning fizik-kimyoviy xossalari”** nomli uchinchi bobida tarkibida Se⁰ NZ tutgan bioparchalanuvchan o‘smaga qarshi polimer tarkibli dori vositasi va biomateriallar olish uchun dastlabki Na-KMS na‘munalarini tanlash; Na-KMS va natriy selenit tuzi orasidagi reaksiya sharoitlarini aniqlash va Na-KMS eritmalarida selen ionlarini kimyoviy qaytarishning optimal sharoitlarini tanlash; Na-KMS gelida turli xil o‘lcham va shaklli Se⁰ NZni sintez qilish, hamda ularning tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalari aniqlash; tarkibida Se⁰ NZ tutgan Na-KMS asosida biokompozit plyonkalarining olinishi va ularning fizik-kimyoviy, fizik-mexanik xossalari bo‘yicha olingan natijalar va ularning muhokamalari keltirilgan.

Dastlab, tanlab olingan AD=0,80-0,98 va PD=630-1015 bo‘lgan tozalangan Na-KMS na‘munalarining erigan va gel fraksiyalar miqdori va ularning AD va PD qiymatlari aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

Na-KMS eritmasining erigan va gel fraksiyalar miqdorlariga ularning PD va AD qiymatlarining ta’siri.

№	Tozalangan Na-KMSning sifat ko‘rsatkichlari		Sentrifugadan keyingi Na-KMS na‘munalarining erigan va gel fraksiya miqdorlari					
	AD	PD	Erigan fraksiya			Gel fraksiya		
			Miqdori, %	AD	PD	Miqdori, %	AD	PD
1	0,80	630	99,5	0,86	620	0,5	0,22	650
2	0,90	800	99,6	0,92	790	0,4	0,20	813
3	0,98	1015	99,8	0,98	980	0,2	0,16	1080

Keltirilgan 1-jadvaldan ko‘rinadiki, AD=0,86; 0,90; 0,98 va PD=630; 800; 1015 bo‘lgan tozalangan Na-KMS eritmaları sentrifugadan keyin mos ravishda ularning AD=0,86; 0,92; 0,98 va PD=620; 790; 980 bo‘lgan va ularning eruvchanlik qiymatlari 99,5; 99,6; 99,8 bo‘lgan fraksiyalar aniqlandi.

Tadqiqotlar natijasida AD=0,86 va PD=620 bo‘lgan Na-KMS na‘munasi tarkibida Se⁰ NZ tutgan eritmalar olishda qo‘llash uchun tanlab olindi.

Na-KMSning AD=0,92 va PD=790 bo‘lgan na‘munasida erish vaqtining qisqaligi va gel hosil qilishi bois tarkibida Se⁰ NZ tutgan gel na‘munalarini olish uchun tanlab olindi.


Tadqiqotlar natijasida Na-KMSning AD=0,98 va PD=980 na‘munasidan olingan plyonkalari yuqori mexanik xossani namoyon etganligi bois tarkibida Se⁰ NZ tutgan biokompozit plyonkalar olishda keyingi tadqiqotlar uchun tanlab olindi.

Dastlab, AD=0,86; PD=620 bo‘lgan Na-KMS na‘munasidan 1% li suvli eritmaları tayyorlandi va ularga 0.1 M Na₂SeO₃ eritmasidan har xil konsentratsiyalarda qo‘shildi va askorbin kislotasi ishtirokida kimyoviy qaytarilish orqali biokompozit eritmalar sintez qilindi. Tadqiqotlar natijalarida tarkibida o‘lchamlari kichik va bir jinsli bo‘lgan sharsimon Se⁰ NZ tutgan Na-KMS eritmasi olishning optimal sharoitlari aniqlandi: AD=0,86 va PD=620 bo‘lgan 1%-li Na-KMS eritmasi; Askorbin kislotasining miqdori - 0,0956%; Natriy selenit miqdori - 0,047%; Reaksiya harorati - 60°C; UT ta‘sir vaqti - 15 minut; Reaksiya vaqti - 2 soat bo‘lganda o‘lchamlari 88-160 nm bo‘lgan sharsimon Se⁰ NZ hosil bo‘lishi aniqlandi.

Tozalangan Na-KMS gelida turli xil o‘lcham va shaklli Se⁰ NZ sintez qilish usullarini aniqlash, optimal konsentratsiyalarini tanlash va ularning tuzilishi, fizik-kimyoviy xossalari. Na-KMSning AD=0,92 va PD=790 bo‘lgan na‘munasidan 2%-li geli tayyorlandi va Na₂SeO₃ eritmasidan turli konsentratsiyalarda qo‘shilganida eritmada Na⁺ kationi va SeO₃²⁻ anionlariga dissotsiatsiyalanadi va eritmada SeO₃²⁻ anionlari ikki bosqichda C₆H₈O₆ ishtirokida kimyoviy qaytarilish natijasida erkin selen elementigacha (Se⁰) qaytariladi. Eritmaning och qizil rangdan to‘q qizil rangga o‘zgarishi Se⁰ NZning hosil bo‘lishini xarakterlaydi (1).




Reaksiya jarayonida SeO₃²⁻ ionlari askorbin kislotasi bilan ta‘sirlashib oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi ikki bosqichda boradi va birinchi bosqichda oraliq mahsulot sifatida monogidroaskorbinkislotasi hosil bo‘ladi va u eritmada SeO₃²⁻ anionlari bilan oksidlanib degidroaskorbin kislotasiga (C₆H₆O₆) aylanadi (2).



Keltirilgan 2-reaksiyadan ko‘rinadiki, Na-KMS geli tarkibidagi ikki molekula askorbin kislotasi halqasidagi 2 va 3 uglerod atomlari bittadan elektron berishi hisobiga SeO_3^{2-} tarkibidagi Se^{4+} ionlari 4 ta elektron biriktirib Se^0 atomigacha qaytariladi.


Na-KMS gellarida shakllangan atom radiusi 0,14 nm bo‘lgan selen atomlari ichki va tashqi qutblanishlar natijasida yuzaga kelgan elektrostatik tortishish hisobiga o‘zaro birikib Se^0 NZni hosil qiladi. Se^0 NZ musbat dipollari bilan karboksil ($-\text{COO}^-$), gidroksil ($-\text{OH}^-$) guruhlarning kuchli manfiy dipollari o‘rtasida dipollararo ion-dipol bog‘lanish hosil bo‘lishi natijasida Se^0 NZ barqarorligi ta‘minlanadi (1-rasm).



1-rasm. Na-KMS va Se^0 NZ orasida dipollararo bog‘lanish natijasida barqaror biokompozit gellar hosil bo‘lishining taklif etilgan sxemasi.

Keltirilgan 1-rasmdan ko‘rinadiki, Se^0 NZ yuzasida hosil bo‘lgan musbat dipollar Na-KMS matritsasidagi kuchli manfiy qutblangan karboksil ($-\text{COO}^-$) guruhlarga o‘zaro tortilishi natijasida Na-KMS va Se^0 NZ o‘rtasida molekulararo ion-dipol bog‘lar hosil bo‘ladi va kislorod atomlariga bog‘langan vodorod atomlari bilan Se^0 NZ o‘rtasida vodorod bog‘lanishlar hosil bo‘ladi.


Shakllangan biokompozit na‘munalar makromolekularidagi modifikatsiyalangan funksional guruhlarni aniqlash va Na-KMS va Se^0 NZ o‘rtasidagi kimyoviy bog‘lanishlarni baholash maqsadida Na-KMS, Na-KMS/ SeO_3^{2-} , Na-KMS/ Se^0 NZ na‘munalarida IQ-spektroskopiya tadqiqotlari o‘tkazildi (2- rasm).



2-rasm. Na-KMS, tarkibida SeO_3^{2-} va Se^0 NZ tutgan 2%-li Na-KMS gelidan olingan plyonka na‘munalarining IQ-spektrlari.
(1) 2%-li Na-KMS, (2) Na-KMS/ SeO_3^{2-} , (3) Na-KMS/ Se^0 NZ

IQ-spektroskopiya tadqiqot natijalariga ko'ra, Na-KMS makromolekulalarining karboksimetil guruhlaridagi karboksil ($-\text{COO}^-$) guruhlari uchun xos bo'lgan yutilish spektrlari 1606 cm^{-1} sohalardan 1601 cm^{-1} sohalarga siljishi shakllangan Se^0 NZ atrofida ionlangan kuchli qutbli ($-\text{COO}^-$) guruhlari ion-dipol bog'lanishlar bilan bog'lanib, qobiq hosil qilishini izohlaydi. Ushbu sohalarda kuzatilgan o'zgarishlarni manfiy qutblangan ($-\text{COO}^-$) guruhlarning musbat qutblangan Se^0 NZ atrofiga tortilishi va $-\text{OH}$ va Se o'rtasida vodород bog'lanishlar yuzaga kelishi bilan tushuntirish mumkin.

Na-KMSning 2%-li gelida shakllantirilgan Se^0 NZning o'lchami, shakli va morfologik tuzilishi AKM mikroskopiya tadqiqotlari yordamida o'rganildi (3-rasm).



3-rasm. Tarkibida turli o'lcham va shaklli Se^0 NZ tutgan Na-KMS gelining AKM tasvirlari va o'lchamlari bo'yicha taqsimlanish gistogrammalari.

- O'lchamlari 16-33 nm bo'lgan sharsimon shaklli, monodispers Se^0 NZ tutgan Na-KMS geli. (Hajm nisbatlari 100 ml 2% Na-KMS : 1 ml 0.1 M Na_2SeO_3 , $\omega_{(\text{Se}^0 \text{ NZ})} = 0,0075\%$);
- O'lchamlari 27-44 nm bo'lgan sharsimon shaklli, monodispers Se^0 NZ tutgan Na-KMS geli. (Hajm nisbatlari 100 ml 2% Na-KMS : 3 ml 0.1 M Na_2SeO_3 , $\omega_{(\text{Se}^0 \text{ NZ})} = 0,022\%$);
- Uzunligi 12-60 nm va qalinligi 4-56 nm bo'lgan trigonal shaklli Se^0 NZ tutgan Na-KMS geli. (Hajm nisbatlari 100 ml 2% Na-KMS : 6 ml 0.1 M Na_2SeO_3 , $\omega_{(\text{Se}^0 \text{ NZ})} = 0,0395\%$).


AKM tadqiqot natijalariga ko'ra, Na-KMS gelida dastlabki Na_2SeO_3 tuzining miqdori 0,0165% bo'lganda askorbin kislotasi ishtirokida kimyoviy qaytarishdan keyin o'lchamlari 16-33 nm bo'lgan sharsimon shaklli Se^0 NZ hosil bo'lgan (3-rasm, a).

Na-KMSning gelida dastlabki Na_2SeO_3 tuzi konsentratsiyasining 0,047%-gacha oshirilganda kimyoviy qaytirilgandan so'ng o'lchamlari 27-44 nm bo'lgan sharsimon shaklli 0,022% miqdorda Se^0 NZ hosil bo'lganligi aniqlandi (3-rasm, b). Na-KMS gelida Na_2SeO_3 konsentratsiyasi maksimal 0,0865% oshirilganda uzunligi 12-60 nm va qalinligi 4-28 nm bo'lgan sharsimon shaklli 0,0395%

miqdorda Se^0 NZ hosil bo'lganligi kuzatildi.

Tadqiqotlarning navbatdagi qismida, Na-KMS gellarida hosil bo'lgan Se^0 NZning vaqt davomida saqlanganda ularning barqarorligi DLS tadqiqotlari orqali o'rganildi (4-rasm).

Keltirilgan natijalardagi 4-rasmdan (a,b,c) ko'rinadiki, tarkibida o'lchamlari 27-44 nm bo'lgan Se^0 NZ tutgan Na-KMS geli 1 soat, 168 soat va 672 soat vaqtlar davomida saqlanganda DLS analizidan olingan piklarda o'zgarishlar kuzatilmadi. Suvli eritmada sintez qilingan Se^0 NZ 672 soat vaqt davomida saqlanganda ular aglomeratsiya bo'lgan (4-rasm. d, e, f)



4-rasm. Na-KMS gelida va polimer tutmagan suvli eritmalarda shakllantirilgan Se^0 NZning vaqt davomidagi barqarorligi.

a) 1 soat; b) 168 soat s) 672 soat vaqt davomida saqlangan tarkibida 0,022% Se^0 NZ tutgan; Na-KMS eritmasi; d) 1 soat e) 168 soat f) 672 soat vaqt davomida saqlangan tarkibida 0,022% Se^0 NZ tutgan suvli eritma


Na-KMS gellari va suvli eritmalarida sintez qilingan Se^0 NZning zeta potensial qiymatlari aniqlash orqali barqarorligi o'rganildi.

Olingan natijalarga ko'ra 2%-li Na-KMS gelining makromolekulasidagi karboksil ($-COO^-$) guruhlar hisobiga zeta potensial qiymati $\xi = -53,4 mV$ ekanligi aniqlandi. Tarkibida 0,022% Se^0 NZ tutgan suvli eritmaning zeta potensial qiymati $\xi = 12,9 mV$ musbat qiymatga ega ekanligi aniqlandi. Na-KMS asosidagi gel tarkibida o'lchamlari 27–44 nm bo'lgan 0,022% Se^0 NZning zeta potensial qiymati $\xi = -45,7 mV$ ga teng ekanligi Na-KMS makromolekulalaridagi karboksil guruhlar barqarorlashtirish vazifasini o'tashi bilan izohlanadi.

Tarkibida Se^0 NZ tutgan Na-KMS biokompozit geli olishning optimal sharoitlari aniqlandi: AD=0,92 va PD=790 bo'lgan Na-KMSning 2%-li geli;

Askorbin kislotasining miqdori - 0,0956%; natriy selenit miqdori - 0,047%; Reaksiya harorati - 60°C; UT vaqti - 15 minut; Reaksiya vaqti - 2 soat bo'lganda o'lchamlari 27-44 nm bo'lgan sharsimon shaklli monodispers Se^0 NZ hosil bo'lishning optimal sharoitlari aniqlandi.

Tarkibida Se^0 NZ tutgan Na-KMSning 3-% geli asosidagi biokompozit plyonka na'munalariidagi shakllangan Se^0 NZning o'lchami, shakli va morfologiyasi AKM tadqiqotlarida o'rganildi (5-rasm).



5-rasm. Tarkibida Se^0 NZ tutgan Na-KMS gelidan olingan plyonkalarining AKM tadqiqot natijalari (*harorat 60 °C; UT-vaqti 15 minut*).

- Tarkibida 0,0165% Na_2SeO_3 tutgan Na-KMS gelidan olingan plyonka, 100 ml Na-KMS gelida 1ml 0,1 M Na_2SeO_3 eritmasi, (Se^0 NZ o'lchami 32,5-68 nm)
- Tarkibida 0,047% Na_2SeO_3 tuzi tutgan Na-KMS gelidan olingan plyonka. 100 ml Na-KMS gelida 3 ml 0,1 M Na_2SeO_3 eritmasi, (Se^0 NZ o'lchami 68-91 nm)
- Tarkibida 0,0865 % Se^0 NZ tutgan Na-KMS gelidan olingan plyonka. 100 ml Na-KMS gelida 3 ml 0,1 M Na_2SeO_3 eritmasi (Se^0 NZ o'lchami 98-220 nm)


Na-KMS gelida dastlabki Na_2SeO_3 tuzining miqdori ortishi bilan (5-rasm) kimyoviy qaytarishdan so'ng hosil bo'lgan Se^0 NZ o'lchamlari plyonkalarda 32.5 nm o'lchamdan 220 nm o'lchamgacha ortganligi kuzatildi. Bunda Se^0 NZ o'lcham va shaklining sharsimon shakldan trigional shaklga o'zgarishi nanozarralarning bir xil qutbga tartibli joylashishi natijasida kristalning o'sishi bilan izohlash mumkin.

Tarkibida Se^0 NZ tutgan tozalangan Na-KMS asosida biokompozit plyonkalarining olinishi va ularning fizik-kimyoviy va mexanik xossalari. Tarkibida Se^0 NZ tutgan Na-KMS geli asosida biokompozit plyonkalar olish uchun AD=0,98; PD=980 bo'lgan Na-KMS gelining reologik xossalari aniqlandi. Tadqiqotlar natijasida tarkibida turli miqdorda Se^0 NZ tutgan Na-KMS geli asosida biokompozit plyonkalar olish imkoniyatlari va ularning fizik-mexanik xossalari aniqlandi.

Na-KMS plyonkasi tarkibida Se^0 NZ miqdori ortishi bilan plyonkalarda uzilishdagi mustahkamlik ortib borgan va cho‘ziluvchanlik kamayib borgan, plyonkalarining mustahkamligining ortishi tarkibida kuchli qutblangan Se^0 NZ bilan Na-KMS makromolekularidagi karboksil guruhlar o‘rtasida ion-dipol tortishishlar sababli plyonkaning mustaqamligi ortishi aniqlandi.

Tarkibida turli konsentratsiyalarida Na_2SeO_3 tuzi tutgan Na-KMS gelida kimyoviy qaytarishdan so‘ng olingan biokompozit plyonkalarda shakllantirilgan Se^0 NZning o‘lchamlari va miqdori SEM tadqiqotlari orqali aniqlandi (6-rasm).

Keltirilgan SEM tasvirlaridan ko‘rinadiki, biokompozit plyonka tarkibida Se^0 NZ konsentratsiyasi 0,24 % bo‘lganda 5-65 nm (6 - rasm, A) monodispers Se^0 NZ hosil bo‘lgan.



6-rasm. Tarkibida turli o‘lcham va shaklli Se^0 NZ tutgan Na-KMS asosidagi biokompozit plyonkalarining SEM tadqiqot natijalari.


A) Tarkibida 0,24 % Se^0 NZ tutgan Na-KMS plyonkasi. Se^0 NZning o‘lchamlari 5-65 nm.

B) Tarkibida 0,39% Se^0 NZ tutgan Na-KMS plyonkasi. Se^0 NZning o‘lchamlari 17-105 nm.

C) Tarkibida 1,083 % Se^0 NZ tutgan Na-KMS plyonkasi. Se^0 NZning o‘lchamlari 60-240 nm.

Na-KMS asosidagi kompozitsiyalar tarkibida Se^0 NZning konsentratsiyasi 0,39% bo‘lganda o‘lchamlari 17-105 nm bo‘lgan monodispers (6-rasm, B) va konsentratsiyasi 1,083%-gacha oshirilganda o‘lchamlari 60-240 nm bo‘lgan polidispers Se^0 NZ hosil bo‘lganligi kuzatildi (6 - rasm, C).

Na-KMSning 3%-li gelidan olingan biokompozit plyonkalarida shakllangan barqaror Se^0 NZning kristallik singoniyasini va o‘lchamlarini aniqlash uchun rentgenostrukturaviy tadqiqotlar olib borildi (7 - rasm).



7 - rasm. Tarkibida Se⁰ NZ tutgan Na-KMS plyonkalarining rentgen difraktogrammalari.
 1) Na-KMS; 2) KMS/SeO₃²⁻; 3) KMS/Se⁰ NZ plyonkalarini. (Na-KMS va Na₂SeO₃ eritmalarining hajm nisbatlari 100 : 40 ml 0.01 M).

Rentgenostrukturaviy tadqiqot natijalaridan ko‘rinadiki tozalangan Na-KMS va KMS/SeO₃²⁻ va KMS/Se⁰ NZ plyonkalarida 2θ = 10°, 17.5°, 23° graduslarda amorf tuzilishga ega difraksiyalar amorf galoni hosil qilganligi aniqlandi (7-rasm 1,2) KMS/Se⁰ NZ tarkibli plyonkasida a=9,01 Å, b=8,99 Å, c=11,5 Å va b=91,3° burchakka ega monoklin kristal singoniyaga ega sharsimon shaklli Se⁰ NZ hosil bo‘lgan va 31.5°, 48.5°, 64.6°, 67°, 70.5° graduslarda intensivligi yuqori bo‘lgan kuchli defarmatsion tebranishlarni hosil qilib, 101, 200, 120, 211, 113 kristall tekisliklarini namoyon qildi va adabiyotlar bilan taqqoslanganda mos kelganligi aniqlandi (7-rasm, 3).

Atom-absorbsion spektroskopiya tadqiqotlari AD=0,98; PD=980 bo‘lgan Na-KMS asosida olingan tarkibida Se⁰ NZ tutgan biokompozit plyonka na‘munalarida olib borildi (2-jadval).

2-jadval.

Tarkibida Se⁰ NZ tutgan Na-KMS asosigi biokompozit plyonkalarining atom absorbsion analiz natijalari.

№	Na‘munalar	Na ₂ SeO ₃ tuzining miqdori, mol	Elementlar tarkibi, %							
			Mass. %				Atom, %			
			C	O	Na	Se	C	O	Na	Se
1	Na-KMIQ plyonkasi	-	55,15	38,54	9,91	-	60,17	33,78	6,04	-
2	Tarkibida Se ⁰ NZ tutgan Na-KMS plyonkasi	5 x 10 ⁻⁵	51,76	35,44	12,13	0,67	60,38	30,54	8,96	0,12
		1 x 10 ⁻⁴	48,14	32,1	18,36	1,4	60,57	28,29	10,89	0,25
		3 x 10 ⁻⁴	46,55	16,36	32,87	4,23	60,73	16,02	22,40	0,84

Olingan natijalardan ko‘rinadiki Na-KMS plyonkasi tarkibidagi nazariy hisoblangan Se⁰ NZ miqdori olingan natijalarga yaqinligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning “**Natriy-karboksimetilsellyuloza va selen nanozarralari asosida biokompozit preparatlarning tibbiy-biologik xossalarini tadqiq etish va ularning prinsipl texnologik sxemasini ishlab chiqish**” nomli to‘rtinchi bobida tarkibida barqarorlashtirilgan Se⁰ NZ tutgan Na-KMS asosida polimer tarkibli biokompozit gel va plyonka shaklidagi preparatlarning tibbiy-biologik xossalari aniqlash va tarkibida Se⁰ NZ tutgan Na-KMS asosida biokompozit gel va plyonka na‘munalarini prinsipl texnologik tizimlarini ishlab chiqish bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Mazkur bobda tarkibida o‘lchamlari 27-44 nm bo‘lgan va 0,0215% Se⁰ NZ tutgan Na-KMS biokompozit geli hamda tarkibida o‘lchamlari 68-91 nm bo‘lgan va 0,0395% Se⁰ NZ tutgan Na-KMS asosidagi biokompozit plyonka

na'munalarining o'tkir zararlilik xossalari tarkibida 0,041% Na₂SeO₃ tuzi tutgan suvli eritma bilan taqqoslandi.

Tarkibida Se⁰ NZ tutgan Na-KMS asosida biokompozit gel va plynka na'munalarining o'rtacha o'lim dozasi (LD₅₀) Na₂SeO₃ tuziga nisbatan turli yo'llar orqali yuborib o'rganilganda zararlilik bo'yicha IV-guruhga mansub bo'lib ushbu na'munalar bezarar preparatlar qatoriga kirishi tajribalar orqali aniqlandi.

Tarkibida turli o'lcham va shaklli Se⁰ NZ tutgan Na-KMS asosida olingan biokompozit gel na'munalarini *Ehrlich Ascites carcinoma* o'sma hujayrasiga qarshi sitostatik faolligi *in vitro* tadqiqotlar orqali o'rganildi (3-jadval).

